



XALQ DEPUTATLARI KATTAQO'RG'ON SHAHAR KENGASHI QARORI

2022 - yil «7» - oktabr

VI-64-154-7-106-K/22

Kattaqo'rg'on shahar hokimligi

Kattaqo'rg'on shahridagi ayrim nomsiz ko'cha, xiyobon, maydon va qabristonlarni nomlash va qayta nomlash to'g'risida

Shahar hokimligi huzuridagi geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo'yicha komissiyasining 2022-yil 17-martdagi 2/16-sonli yig'ilish bayoni, viloyat hokimligi huzuridagi geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo'yicha komissiyasining 2022-yil 18-martdagi 13-13/94-sonli yig'ilish bayoni, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2022-yil 31-martdagi 01-14-413-sonli ekspertiza xulosasi hamda O'zbekiston Respublikasining "Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida"gi Qonunining 10-moddasiga asosan xalq deputatlari shahar Kengashining oltinchi chaqiriq, oltmish to'rtinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo'yicha shahar komissiyasi raisining o'rinbosari J.Sherovning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasining "Geografik obyektlarining nomlari to'g'risida"gi Qonuni hamda shahar hokimligi huzuridagi geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo'yicha komissiyasining 2022-yil 17-martdagi 2/16-sonli yig'ilish bayoni bilan tasdiqlangan shahardagi Takror va qonun talablariga mos kelmagan ko'chalarni nomlash bo'yicha takliflar 1-ilovaga, Nomsiz xiyobon va maydonlarni nomlash

bo'yicha takliflar 2-ilovaga hamda Nomsiz qabristonlarni nomlash bo'yicha takliflar 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Shahar hokimligi huzuridagi geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo'yicha komissiyasi (J.Sherov):

- o'n kun muddatda mazkur qaror bilan tasdiqlangan shahardagi ko'cha, xiyobon, maydon hamda qabristonlarni davlat ro'yxatidan o'tkazilish choralarini ko'rsin;

- bir oy muddat ichida nomsiz ko'chalarga nom berilishi munosabati bilan amalga oshirilishi lozim bo'lgan barcha (zamonaviy va milliy dizaynda ko'rsatkich belgilarini o'rnatish, fuqarolar pasportlariga, muassasa va tashkilotlarning muhr va shtamlari hamda ish qog'ozlariga tegishli o'zgartirishlar kiritish va boshqalar) ishlarning sifatli bajarilishini ta'minlash choralarini ko'rsin.

4. Ushbu qaror "Kattaqo'rg'on tongi" gazetasi hamda shahar hokimligi rasmiy veb-saytida e'lon qilinsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining Ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi (U.Sharipova) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



G. Alimova

Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on
shahar Kengashining
2022 yil 7 oktabrdagi
VI-64-154-7-106-K/22-son qaroriga
1-ilova

**Kattaqo'rg'on shahridagi takror va qonun talablariga mos kelmagan
ko'chalarni nomlash bo'yicha**

TAKLIFLAR

| T/r | Geografik obyektning turi | Joylashgan o'рни | Geografik obyektning amaldagi nomi | Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif | Eksport komissiyasining xulosasi |
|------------|----------------------------------|-------------------------|---|--|---|
| 1 | Ko'cha | Haydarchaman | Nuroniyy | Bahodir Yo'ldoshev | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq |

Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on
shahar Kengashining
2022 yil 7 oktabrdagi
VI-64-154-7-106-K/22-son qaroriga
2-ilova

**Kattaqo'rg'on shahridagi nomsiz xiyobon va maydonlarni nomlash bo'yicha
TAKLIFLAR**

| T/r | Geografik obyektning turi | Joylashgan o'rnini MFY | Geografik obyektning amaldagi nomi | Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif | Ekspert komissiyasining xulosasi |
|-----|---------------------------|------------------------|------------------------------------|---|--------------------------------------|
| 1 | Xiyobon | Navbahor | Nomsiz | Mirzo Ulug'bek | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq |
| 1 | Maydon | Haydarchaman | Nomsiz | Motamsaro ona | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq |
| 2 | Maydon | Oqoltin | Nomsiz | Qardoshlik | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq |

Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on
shahar Kengashining
2022 yil 7 oktabrdagi
VI-64-154-7-106-K/22-son qaroriga
3-ilova

**Kattaqo'rg'on shahridagi nomsiz qabristonlarni nomlash bo'yicha
TAKLIFLAR**

| T/r | Geografik obyektning turi | Joylashgan o'ri MFY | Geografik obyektning amaldagi nomi | Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif | Ekspert komissiyasining xulosasi |
|-----|---------------------------|---------------------|------------------------------------|---|--------------------------------------|
| 1 | Qabriston | Zarafshon | Nomsiz | Azizxo'ja | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq |
| 2 | Qabriston | Ko'hnadam | Nomsiz | Dashtbozor | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq |
| 3 | Qabriston | Go'zalkent | Nomsiz | Sarmozor | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq |
| 4 | Qabriston | Oq oltin | Nomsiz | Sarmozor-1 | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq |
| 5 | Qabriston | Oq oltin | Nomsiz | Qardoshlik | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq |
| 6 | Qabriston | Chinobod | Nomsiz | Dashtbozor-1 | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq |
| 7 | Qabriston | Usmon Nosir | Nomsiz | Jumashayit | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq |
| 8 | Qabriston | Chig'anoq qishlog'i | Nomsiz | Yahudiylar | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq |

